

O'ZBEK VA ARAB TILLARIDA OMONIM SO'ZLARNING IFODALANISHI

Almardanov Dilmurod Eshmurod o'g'li

Oriental Universiteti o'qituvchi-stajyori

email: Dilmurodansoriy@gmail.com, +998977431164

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18738267>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek va arab tillaridagi omonim so'zlar (shakldoshlar) qiyosiy jihatdan o'rganilgan. Maqolada o'zbek tilshunosligida omonimlarning hosil bo'lish yo'llari, lug'aviy va grammatik turlari hamda ularning ko'p ma'noli so'zlardan farqli jihatlari tahlil qilingan. Arab tili leksikologiyasida "mushtarak lafz" deb yuritiluvchi omonimlar masalasi, ulamolar o'rtasidagi ilmiy xiloflar hamda ism, fe'l va harf turkumlaridagi mushtaraklik misollar orqali yoritib berilgan. Tadqiqotda omonimlarning badiiy adabiyotda, xususan, tuyuq janri va tajnis san'atini yaratishdagi o'rni Alisher Navoiy ijodi misolida ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Omonim, mushtarak lafz, shakldosh so'zlar, leksik omonim, grammatik omonim, polisemantiya, tajnis, tuyuq, Alisher Navoiy, arab tili leksikologiyasi.

Аннотация. В данной статье проводится сравнительный анализ омонимов в узбекском и арабском языках. В статье рассматриваются пути формирования омонимов в узбекском языкознании, их лексические и грамматические виды, а также отличия от многозначных слов. Исследуется вопрос омонимов в арабской лексикологии, известных как "муштарак лафз", научные дискуссии среди ученых, а также примеры общности в именах, глаголах и частицах. В работе на примере творчества Алишера Навои показана роль омонимов в художественной литературе, в частности, в жанре туйук и искусстве таджнис.

Ключевые слова: Омоним, муштарак лафз, лексический омоним, грамматический омоним, полисемия, таджнис, туйук, Алишер Навои, арабская лексикология.

Abstract. This article presents a comparative study of homonyms in the Uzbek and Arabic languages. It analyzes the methods of homonym formation in Uzbek linguistics, their lexical and grammatical types, and their distinctions from polysemous words. The issue of homonyms in Arabic lexicology, referred to as "mushtarak lafz," is examined alongside scholarly debates and examples of commonality in nouns, verbs, and particles. The study demonstrates the role of homonyms in literature, specifically in the tuyuq genre and the art of tajnis, using the works of Alisher Navoiy as an example.

Keywords: Homonym, mushtarak lafz, lexical homonym, grammatical homonym, polysemy, tajnis, tuyuq, Alisher Navoiy, Arabic lexicology.

Tildagi mavjud so'zlar shakl va ma'no munosabatiga ko'ra 3 turga bo'linadi:

1. Omonim
2. Sinonim
3. Antonim.

Shakli bir xil, ma'nosi har xil bo'lgan so'zlarga omonim deyiladi. Omonim so'zi grekcha «bir xil» degan ma'noni ifodalaydi. Masalan: chang so'zi quyidagi ma'nolarga dalolat qiladi:

- to'zon, gard, g'ubor; tuproqning juda mayda kukuni. Masalan, Chang ko'tarildi.
- Chang – to'rt burchak yassi quti shaklidagi, sim torlar tortilgan qo'sh cho'p bilan chalinadigan musiqa asbobi. Choyxonada dutor, chang... shaxmat devor soati paydo bo'ldi. (A.Qahhor)

Omonimlar 2 turga ajratiladi: lug'aviy omonimlar va grammatik omonimlar.

Lug'aviy omonimlar:

- 1) so'zlar doirasida;
- 2) iboralar doirasida bo'ladi.

Omonimlik hodisasi so'z bilan so'z doirasida bo'lsa, leksik omonim deyiladi. Masalan: kul so'zi:

- kul (ot) – biror narsaning yonishi natijasida hosil bo'ladigan qoramtir kukun. U oshxona oldida turgan kul chelakni olishga buyurdi. (P.Tursun).
- kul (fe'l) – zavq shovqini, xursandchilikni bildiruvchi tovushlar chiqarmoq: Nega Aziz bu qadar shod: Yuzi kuladi, ko'zlari yonadi? (H.G'ulom) .

Omonimlik hodisasi ibora bilan ibora doirasida bo'lsa, frazeologik omonim deyiladi. Masalan:

- bosh ko'tarmoq - pastdan yuqoriga boshini harakatga keltirmoq.
- bosh ko'tarmoq - qarshi qo'zg'olon ko'tarmoq,
- bosh ko'tarmoq - tuzalmoq, sog'aya boshlamoq.

Demak, lug'aviy omonimlar 2 xil: leksik va frazeologik omonim kabi ko'rinishlari mavjud.

Shuningdek tilshunoslikda grammatik omonim ham farqlanadi. Grammatik omonimlar qo'shimchalar doirasidagi shakliy tenglikdir. Shakli bir xil, ma'nosi har xil qo'shimchaplarga grammatik omonimlar deyiladi. Masalan: -im qo'shimchasi quyidagilarga dalolat qiladi:

- bilim – ot yasovchi qo'shimcha, fe'ldan ot yasaydi.
- kitobim – 1 shaxs birlik qo'shimchasi.

Omonimlar turli xil yo'llar bilan yuzaga keladi :

1. Tilda mavjud so'zlarning shakli teng kelib qolishi natijasida. Masalan:

- ko'k (sifat) – havo rangli, moviy, zangori.
- ko'k (ot) – osmon, falak: Ko'kda yulduzlar charaqlaydi.
- ko'k (ot) – kashnich, ukrop, barra piyoz kabi o'simlik. Hozir bozordan qishin-yozin ko'k arimaydi.

2. Ko'p ma'noli so'zlar orasidagi ichki bog'lanish yo'qolishi natijasida:

- yosh (ot) – umrning yilma-yil hisobi: Yoshingiz nechada?
- yosh (sifat) – umrning vaqt hisobiga nisbatan ozi: U mendan ancha yosh.
- yosh (ot) – ko'zdan chiqadigan suyuqlik: Chin ko'ngildan yig'lasa, so'qir ko'zdan yosh chiqar. (Maqol)

3. O'zlashgan so'zlar o'zbek tilidagi so'zga yoki boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarning o'zi o'zaro omonim bo'lib qoladi:

- tur (o'zbekcha) – xil, ko'rinish, nav: Gazlama turlari.
- tur (ruscha) – sport termini: jahon shaxmat chempionatining ikkinchi tur o'yinlari.
- jo'ra (tojikcha) – gap-gashtak qatnashchisi: Jo'ralar yosh jihatgan teng bo'lmasa, gap qizimaydi.
- jo'ra (tojikcha) – kosiblar bir xil teng qilib to'qiydigan ikki bo'lak mato: Bir jo'ra atlas.

4. Turli shevalarga oid so'zlar o'zaro shakldosh bo'lib qoladi:

- dim – sukut, indamaslik, tovush chiqarmaslik: Dim o'ynamoq.
- dim – sernam va issiq havo aqida: Xonaning ichi juda dim.
- dim – mutlaqo, aslo: dim ularga qaray ko'rma.

Omonimlardan xalq og'zaki ijodida, tuyuq tuzishda keng foydalaniladi. Masalan: Deydilarki, kungaboqar

Umr bo'yi kunga boqar.

Arab tilida esa omonim soʻzlar mushtarak lafz deyiladi. Mushtarak – bu bir qancha boshqa-boshqa maʼnolarniig bir lafz bilan ifodalanishidir. Mushtarak lafzlar quyidagi turlarga boʻlinadi:

• Ismlardagi mushtaraklik. Masalan:

نكاح soʻzi nikoh aqdiga ham, jimoʻga ham dalolat qiladi.

صلاة soʻzi duoga ham, namozga ham dalolat qiladi.

• Feʼllardagi mushtaraklik. Masalan:

تلاfeʼli tilovat qilmoq yoki ergashmoq maʼnolarini bildiradi.

• Harflardagi mushtaraklik. Masalan:

ب harfi jari turli tuman maʼnolarga dalolat qiladi. Jurjoniy “Miʼatu omil” kitobida uning 10 dan oshiq maʼnolarini sanab bergan.

Mushtarak lafzlar borasida ulamolar orasida xilof bor. Bir guruh olimlar arab tilida mushtarak lafzlar (omominlar) yoʻq deyishadi. Bir qancha maʼnolarning bir lafz bilan ifodalanishi esa majoz bilan roʻy bergan deyishadi. Yaʼni birinchi asl maʼnosi haqiqat boʻlib, qolgan maʼnolari majoz hisoblanadi. Bu guruh olimlar boshida Imom Darsavayh turadi. Boshqa ulamolar esa mushtarak lafzlarni bor deb bilishadi va bu maʼnolarning hammasi haqiqatdir majoz emas deb hisoblashadi. Bunday deb hisoblaydigan ulamolar juda koʻp boʻlib, jumladan Asmaʼiy, Xalil ibn Ahmad, Sibvayhi, Ibn Foris, Saʼolibiy, Mubarrad, Suyutiy va boshqalar .

Mushtarak lafzlarga misollar:

مولى

- qul ozod qiluvchi;
- ozod qilingan qul

وراء

- orqasida
- oldida

بحر

- dengiz;
- shahar;
- qishloq

بطن

- qorin;
- jamoa;
- qushning uzun pati

ثعلب

- tulki;
- nayzaning uchi;
- hozuzdan suvning chiqish joyi

ثور

- hoʻkiz;
- sayyid;
- pishloqniing katta bir boʻlagi;
- ahmoq;
- chang koʻtarilishi;
- shafaqning qizilligi

جحد

- inkor;
- yaxshilikning ozligi;
- pakana ot

جَبَّ

- bobo;
- jiddiylik;
- rizq, nasiba;
- yer yuzi;
- dengiz yoki daryo qirg'og'i;
- belgi, alomat;
- eshakning bel qismidagi qora chiziq;
- suvi kam quduq (suvi ko'p quduqqa ham ishlatiladi).

جار

- qo'shni;
- mashaqqatda yordam beruvchi;
- ayol kishining jinsiy a'zosi;
- munofiq

حرث

- ekin ekish;
- dunyo moli;
- savob;
- olovning alanganishi;
- nimanidir qidirish;
- xotin

حرف

- alifbo harflari;
- taraf, tomon;
- shakk, shubha;
- o'tish;
- katta tuya

Omonimlar shakl jihatdan bir xil bo'lishiga ko'ra ko'p ma'noli (polisemantik) so'zlarga o'xshaydi. Lekin omonimlarning ko'p ma'noli so'zlardan farqi shundaki, polisemantik so'z bir nechta ma'noga ega bo'lgan bitta so'z bo'lib, u ifodalagan ma'no o'zaro ichki bog'lanishga ega, ular ayni bir so'zning o'z va ko'chma ma'nosiga asoslanadi. Omonimlar esa turli ma'no ifodalovchi bir nechta so'zdir. Omonimlar. Talaffuzi va yozilishi (shakli) bir xil, ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar omonimlar deyiladi. Masalan, olma (meva) olma (biror narsani olmaslik); ot (hayvon), ot (tashla); suz (ovqatni), suz (suvda).

Omonimlar asosan bir xil turkumdagi so'zlardan hosil bo'ladi. Masalan, suzdi (suvda), suzdi (ovqatni)-fe'l turkumi. Ba'zan omonimlar har xil turkumdagi so'zlardan ham hosil bo'ladi: ot (ism), ot (hayvon)-ot turkumi, ot (tashla)-fe'l turkumi.

Omonim so'zlarda qo'shimchalar qo'shilganda ularning bir qismi (bir turkumdagi so'zlar) omonimlik xususiyatini saqlaydi. Ammo ba'zilarida (boshqa turkumdagi so'zlarda) omonimlik

xususiyat yo'qoladi. Masalan, otim (ismim), otim (hayvonim) omonimlik xususiyat saqdangan, ot (harakat) bu qo'shimchani qabul qilmaydi va omonimlik xususiyat yo'qoladi.

Shuningdek omonim so'zlar asosida ham omonimlar hosil bo'ladi: suz (suvda), suz (ovqatni)-suzma (qatiq), suzma (harakat); ol (qizil), ol (olmoq)- olma (meva), olma (harakat).

Omonimlar va ko'p ma'noli so'zlar bir-biriga o'xshash. Chunki ularda ko'rinishda bitta shakl bo'ladi. Biroq omonimlar har bir ma'nosiga ko'ra bitta so'zni tashkil qilsa, ko'p ma'noli so'zlar esa hamma ma'nolariga ko'ra bitta so'zni tashkil qiladi. Masalan, bosh so'zi nechta ma'nosi bo'lsa ham bir so'z. O't o'zi esa har bir ma'nosiga ko'ra bir so'zdir. Shunga ko'ra omonimlar ko'p ma'noli so'zlardan asosan quyidagicha farkdanadi. Ko'p ma'noli so'zlarning ma'nolari o'zaro bir-biri bilan bog'liq. Masalan, bosh so'zidagi togning boshi, odamning boshi, yo'lning boshi kabi ma'nolarning bog'liqligi bosh qismning (bitta nuqtaning) ifodalanishidir.

Omonimlarda esa ma'no o'zaro bog'liq bo'lmaydi. Masalan, o't so'zidagi «olov», «maysa», «o'tmoq», boshqa-boshqa ma'nolardir. Shunga ko'ra bu ma'nolarning har biri uchun o't so'zi alohida so'zdir.

Omonimlar badiiy adabiyotda tuyuq janrini vujudga keltiradi.

Sham yanglig' yonadur boshimda o't

Ko'z yoshimdan yer yuzida undi o't

Qon yoshim qildi yo'lingni lolazor

Muncha taqsir ayladim, qonimdan o't

(A.Navoiy)

Omonimlardan badiiy adabiyotlarda, ayniqsa askiyachilikda so'z o'yini sifatida foydalaniladi. Badiiy asarlarda tajnis san'ati omonimlar yordamida yaratiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. *عجم الالفاظ المشتركة في العربية. عبد الحليم محمد قنيس مكتبة لبنان* 1987
2. Imomnazarov M. Haqiqat va majoz (2-3-maqolalar) // Sharq yulduzi. – T., 1989. - № 4; 1991. - № 4.
3. Ishoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. – Toshkent: Zarqalam, 2006.
4. Jumaxo'ja N. Satrlar silsilasidagi sehr. – T.: O'qituvchi, 1996
5. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.